Raxmatov Olimjon Orifjonovich

Guliston davlat universiteti

Menejment kafedrasi dotsenti

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Maqolada turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo‘jaliklarida boshqaruv jarayonini takomillashtirish orqali sohani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tendensiyalari yoritilgan. Tadqiqotda baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda qo‘llanilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, intensiv baliqchilikni rivojlantirishning ustuvor mezonlari hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari tahlil qilingan. Olingan natijalar baliqchilik sohasida bozor munosabatlari sharoitida xo‘jaliklarni samarali boshqarish, klasterlashuv jarayonlarini rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: turli mulkchilik shakli, baliqchilik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, rivojlanish tendensiyalari, bozor iqtisodiyoti, xo‘jaliklarni boshqarish, klaster, samaradorlik, ishlab chiqarish, sohani rivojlantirish.

Аннотация. В стате раскрываются основные тенденсии экономического развития отрасли рыбоводства на основе эффективного исползования хозяйств различных форм собственности. Рассмотрены организатсионно-экономические механизмы управления рыбоводческими хозяйствами, а также ключевые критерии развития интенсивного рыбоводства в условиях рыночной экономики. Проведен анализ факторов повышения эффективности производства, внедрения кластерных подходов и совершенствования системы управления хозяйствами. Полученные результаты показывают, что ратсионалное исползование ресурсов и развитие современных механизмов управления способствуют устойчивому развитию отрасли рыбоводства.

Ключевые слова: различные формы собственности, рыбоводство, организатсионно-экономический механизм, тенденсии развития, рыночная экономика, управление хозяйствами, кластер, эффективност, производство, развитие отрасли.

Abstract. The article examines the main development trends of the fisheries sector based on the efficient utilization of enterprises with different forms of ownership. The study analyzes organizational and economic management mechanisms, as well as key criteria for the development of intensive fisheries under market economy conditions. Special attention is paid to factors influencing production efficiency, the introduction of cluster-based approaches, and the improvement of farm management systems. The results demonstrate that rational resource use and modern management mechanisms contribute to the sustainable development of the fisheries sector.

Keywords: forms of ownership, fisheries, organizational and economic mechanism, development trends, market economy, farm management, cluster, efficiency, production, sector development.

KIRISH

Baliqchilik tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar sohaning strategik muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq mamlakat aholisini sifatli baliq va baliq mahsulotlari bilan ta’minlash, aholi xonadonlarida baliq yetishtirish orqali bandlikni oshirish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qulay agrobiznes muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida ichki bozorni arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Baliqchilik tarmog‘i qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda aholini sog‘lom turmush tarzi asosida hayot kechirishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki baliq mahsulotlari yuqori biologik qiymatga ega bo‘lgan oqsilli oziq-ovqat manbai hisoblanadi. Shuningdek, baliqchilik mahsulotlari oziq-ovqat sanoati bilan bir qatorda yengil va kimyo sanoati, farmatsevtika hamda tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida ham keng qo‘llaniladi.

Baliqchilik tarmog‘idan samarali foydalanish, avvalo, ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan subektlarning ishlab chiqarish samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashda ozuqa va xom-ashyo bazasining mavjudligi, suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi hamda baliq chavoqlarini yetishtirish tizimining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi bosqichda baliqchilik tarmog‘ida dolzarb muammolardan biri sifatida me’yoridan ortiqcha baliq ovlash holatlari kuzatilmoqda. Me’yoridan ortiqcha baliq ovlash baliq populyatsiyasining barqaror holatini buzilishiga olib kelib, uzoq muddatda baliq resurslarining kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, baliqchilikdan samarali foydalanish orqali tarmoqni barqaror rivojlantirish tendensiyalarini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Baliqchilik sohasini barqaror rivojlantirish, xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’i nazar, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari iqtisodiy fanlarda muhim tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlar baliqchilik tarmog‘ida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda bozor munosabatlariga mos mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda baliqchilikni rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy asoslari keng yoritilgan. Jumladan, F. Berkis, R. Maxon, M. Solomon, R. Hilborn, P. Daniel, F. Rayner, F. D. Johnston, A. S. Tommas, S. Hammerland, K. Greer, J. Mattias kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida baliq resurslaridan oqilona foydalanish, intensiv ishlab chiqarish usullarini joriy etish va tarmoqni boshqarishning samarali modellarini asoslab bergan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham baliqchilik sohasining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. S. I. Kurdyukov, A. K. Bogeruk, O. V. Kuznesova, J. M. Gordon, V. K. Kiselyov, A. A. Tarasenko, V. S. Kazancheva va boshqalarning ishlarida baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish, davlat tomonidan tartibga solish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Milliy ilmiy manbalarda esa baliqchilik tarmog‘ining agrar iqtisodiyotdagi o‘rni, uni rivojlantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari va samaradorlik masalalariga e’tibor qaratilgan. D. R. Shoximardonov, S. S. G‘ulomov, R. X. Ergashev, I. O. Yunusov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda baliqchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy natijadorligini oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar keltirilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Baliqchilikdan samarali foydalanish orqali sohani rivojlanish tendensiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baliqchilik sohasida iqtisodiy natijadorlikni oshirish nafaqat yirik xo‘jaliklar, balki aholi tomonidan xonadon darajasida amalga oshirilayotgan baliq yetishtirish faoliyati hisobiga ham bozorga sifatli mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu jarayon ichki bozorni barqaror oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda kichik tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, baliqchilikda ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllarini joriy etish orqali mahsulot hajmini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholi bandligini ta’minlash hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. Shu bilan birga, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda tarmoqda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda baliqchilik sohasi institutsional va tashkiliy jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. 2021 yildan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida baliqchilik tarmog‘ini boshqarishda bir qator ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Xususan, mavjud suv havzalarining ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanish, tabiiy va sun’iy suv ob’ektlarini bozor mexanizmlari asosida shaffof tarzda foydalanishga berish amaliyoti joriy etildi. Bu esa sohada ochiqlik va iqtisodiy manfaatdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, baliqni sanoat usulida yetishtirishni rivojlantirish maqsadida suv havzalaridan foydalanish tartiblarini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, baliqchilik sohasi uchun mo‘ljallangan texnologiya va uskunalarni joriy etishda iqtisodiy rag‘batlar qo‘llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



1-rasm.Baliqchilik tarmog‘ida samarali boshqaruvni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

Bundan tashqari, baliqchilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali sohada investitsion faollik kuchaytirildi. Bu esa baliqchilik sub’ektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, baliqchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, birinchi navbatda, boshqaruv tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va resurslarni tejamkor yo‘l bilan ishlatishga bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan baliqchilik salohiyatiga ega hududlarda mavjud ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali tarmoqni yanada kengaytirish va mustahkamlash zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayon baliqchilik sub’ektlari faoliyati ko‘lamini oshirish, ishlab chiqarish imkoniyatlarini to‘liq safarbar etish hamda tarmoqni barqaror rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baliqchilik resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi sub’ektlarning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayon, avvalo, baliqchilik xo‘jaliklarini boshqarishda qo‘llanilayotgan

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar sohada iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish, ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deganda muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tarmoq rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan, o‘zaro uzviy bog‘langan iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy usullar majmuasini o‘z ichiga olgan boshqaruv tizimi tushuniladi. Mazkur tizim orqali davlat boshqaruv sub’ekti sifatida sohani tartibga solish, baliqchilik korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik rejalashtirishni amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon baliqchilik sub’ektlarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda ularning faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi (1-rasm).

XULOSA

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi sohasida mahsulot ishlab chiqarish turli mulkchilik shakllariga asoslangan sub’ektlar faoliyati orqali amalga oshirilmoqda hamda belgilangan konsepsiya, dastur va yo‘l xaritalari doirasida izchil rivojlantirilmoqda. Bu jarayon baliqchilik tarmog‘ida ham o‘z aksini topib, ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Baliqchilik sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish orqali baliq yetishtirish jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kooperatsiya asosida faoliyat yuritish tarmoqda innovatsion va intensiv texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi, shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, baliq mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, bozorga chiqarish va eksport qilish zanjirini rivojlantirish orqali sohada qo‘shimcha qiymat yaratish imkoni yuzaga keladi. Yil davomida aholini baliq mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlashda zamonaviy omborxonalar va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa baliqchilik tarmog‘ida barqaror iqtisodiy o‘sish tendensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-son Farmoni.
2. Дорохов С.М. и др. Прудовое рыбоводство. – Москва: Высшая школа, 1975. – 312 с.
3. Blaug M. The Methodology of Economics, or How Economists Explain. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 416 p.
4. Choriev Q.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy qilish tizimini shakllantirish va rag‘batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). – Toshkent, 2014.
5. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent: “O‘AJBNT markazi”, 2003. – 456 bet.
6. Калиев Г.А. и др. Трудовые крестьянские (фермерские) хозяйства: рекомендации. – Алма-Ата, 1990. – 30 с.
7. Karimov S., Temirov Sh. Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi: ma’ruzalar matni. – Qarshi, 2011. – 105 bet.
8. Ergashev R., Xalikov S., Beglaev U. Baliqchilik iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent, 2020. – 292 bet.
9. Maqsudov I., Jo‘raev J., Amirov Sh. Chorvachilik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012. – 361 bet.
10. Shoximardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish. – Toshkent, 2010.